

OMMAVIY OFERTA

Shaxsiylashtirilgan elektron bolalar kitoblarini tayyorlash va yetkazib berish xizmati bo'yicha ommaviy shartnoma taklifi

QunduzBobo · qunduzbobo.uz · @qunduzbobo_bot

Amal qilish boshlanishi: «5» avgust 2026-yil · Joriy tahrir: №1 · Doimiy manzili: qunduzbobo.uz/oferta

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367, 369 va 375-moddalariga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi va yakka tartibdagi tadbirkor **To'qliyev Abdurauf Bahodir o'g'li** (keyingi o'rinlarda — «Ijrochi») tomonidan har qanday muomala layoqatiga ega jismoniy shaxsga (keyingi o'rinlarda — «Buyurtmachi») qaratilgan.

1.2. Xizmat qunduzbobo.uz veb-sayti va @qunduzbobo_bot Telegram-boti (birgalikda — «Servis») orqali ko'rsatiladi.

1.3. Buyurtma berish va uni to'lash ushbu ofertaning barcha shartlarini so'zsiz va to'liq qabul qilish (aksept) hisoblanadi. Aksept ofertada nazarda tutilgan shartlarda shartnoma tuzilganiga tengdir; qog'oz shaklda imzolash talab etilmaydi.

1.4. Buyurtmachi aksept paytida 18 yoshga to'lgan bo'lishi va bola fotosuratini yuklashda o'sha bolaning ota-onasi yoki qonuniy vakili bo'lishi (yoxud ota-onasining roziligini olgan bo'lishi) shart.

2. Atamalar

- Kitob — Buyurtmachi tanlagan ertak asosida, bola ismi va fotosurati yordamida sun'iy intellekt (AI) texnologiyasi bilan shaxsiylashtirilgan elektron kitob: PDF fayl hamda onlayn varaqlash (flipbook) sahifasi.
- Shablon — Servis katalogidagi tayyor ertak syujeti va illyustratsiya uslubi.
- Referens — yuklangan fotosurat asosida AI yaratadigan bola qahramon obrazi.

3. Oferta predmeti

3.1. Ijrochi Buyurtmachining topshirig'iga ko'ra Kitob tayyorlab, uni elektron shaklda yetkazib beradi; Buyurtmachi xizmat uchun haq to'laydi.

3.2. Mahsulot faqat raqamli shaklda yetkaziladi. Bosma nusxa tayyorlash, chop etish va jismoniy yetkazib berish ushbu oferta doirasiga kirmaydi.

3.3. Har bir Kitob individual buyurtma asosida, aynan shu bola uchun yaratiladi va shu ma'noda yakka tartibda belgilangan xususiyatlarga ega buyum hisoblanadi.

4. Buyurtma berish tartibi

4.1. Buyurtmachi: (a) katalogdan ertak tanlaydi; (b) bola ismini (zarur bo'lsa — yosh va jinsini) kiritadi; (c) kitob tilini tanlaydi (o'zbek, rus yoki ingliz); (d) bolaning fotosuratini yuklaydi; (e) to'lovni amalga oshiradi.

4.2. Sifatli natija uchun fotosurat talablari: bitta bola, yuzi aniq va to'siqsiz ko'rinadigan, yorug' va old (yoki oldga yaqin) rakursdagi surat. Talabga javob bermaydigan fotosurat 8-bo'limda ko'rsatilgan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

4.3. Buyurtmachi kiritgan ism va yuklagan fotosurat to'g'riligi uchun javobgarlik Buyurtmachining o'zida. Ismdagi imlo xatosi bilan tayyorlangan Kitob sifatsiz mahsulot hisoblanmaydi; bunday holatda Ijrochi kelishuv asosida Kitobni to'g'rilangan ism bilan qayta tayyorlashi mumkin.

5. Narx va to'lov

5.1. Xizmat narxi har bir ertak sahifasida va buyurtma rasmiylashtirish oynasida to'lovdan oldin ko'rsatiladi. Joriy tarif: bitta Kitob — 29 000 so'm. Buyurtmachi ilgari xarid qilgan aynan o'sha ertakni ikkinchi marta buyurtma qilsa (masalan, boshqa farzandi uchun), ushbu ertak uchun narx keyingi generatsiyalarda 19 000 so'm miqdorida imtiyozli narx qo'llanadi. Imtiyoz faqat shu bitta avval generatsiya qilingan ertakka taalluqli bo'ladi. Ijrochi narxlar va imtiyoz shartlarini bir tomonlama o'zgartirishi mumkin; o'zgarish faqat undan keyingi buyurtmalarga taalluqli bo'lib, to'lab bo'lingan buyurtmalarga ta'sir qilmaydi.

5.2. To'lov CLICK to'lov tizimi orqali (yoki Servisda ko'rsatilgan boshqa usulda) 100% oldindan to'lov shaklida amalga oshiriladi. To'lov tizimining vositachilik shartlari tegishli tizim qoidalari bilan belgilanadi.

5.3. Shartnoma to'lov Ijrochi hisobiga kelib tushgan paytdan tuzilgan hisoblanadi va Kitob tayyorlash shu paytdan boshlanadi.

6. Tayyorlash va yetkazish muddati

6.1. Kitob odatda to'lovdan keyin bir necha daqiqa ichida tayyor bo'ladi. Navbat, texnik profilaktika yoki uchinchi tomon servislaridagi uzilishlar sababli muddat 24 soatgacha uzayishi mumkin; bu shartnoma buzilishi hisoblanmaydi.

6.2. Tayyor Kitob: (a) buyurtma Telegram orqali berilgan bo'lsa — o'sha chatga PDF shaklida yuboriladi; (b) saytdagi shaxsiy kabinetning «Kitoblarim» bo'limida yuklab olish va onlayn o'qish uchun ochiladi. Ko'rsatilgan usullardan birida taqdim etilishi yetkazib berish majburiyati bajarilganini anglatadi.

6.3. Kitobga kirish havolasi Buyurtmachiga xosdir. Havolani uchinchi shaxslarga berish oqibatlari uchun Buyurtmachi javob beradi.

7. Mahsulotning o'ziga xos xususiyati (AI)

7.1. Kitob illyustratsiyalari sun'iy intellekt yordamida yaratiladi. Buyurtmachi quyidagilarni tushunadi va qabul qiladi:

- qahramon obrazi fotosuratdagi bolaga badiiy uslubda o'xshatiladi, biroq fotografik (100%) portret aynanligi kafolatlanmaydi — bu texnologiyaning tabiatidan kelib chiqadi;
- har bir nusxa noyob: xuddi shu buyurtma qayta yaratilsa, illyustratsiyalar boshqacha chiqadi — bu nuqson emas;
- sahifalardagi qahramon holati, kompozitsiya va mayda detallar sahifadan sahifaga tabiiy ravishda farq qilishi mumkin.

7.2. Ertak matnlari Servisning tahrir qilingan shablon matnlari bo'lib, AI tomonidan generatsiya qilinmaydi; bola ismi matnga avtomatik qo'shiladi.

8. Fotosurat rad etilishi va qayta urinish

8.1. Xavfsizlik tizimlari (jumladan, bolalar xavfsizligi filtrlari) ayrim fotosuratlarni qayta ishlashni rad etishi mumkin. Bunday holatda Ijrochi Buyurtmachini xabardor qiladi va boshqa fotosurat bilan bepul qayta urinish imkonini beradi. To'lov bekor qilinmaydi, balki yangi urinishga o'tkaziladi.

8.2. Buyurtmachi 30 kun ichida yangi fotosurat taqdim etmasa, buyurtma kutish holatida qoladi; Buyurtmachi istalgan payt murojaat qilib jarayonni davom ettirishi mumkin.

9. Pretenziyalar, qayta tayyorlash va to'lovni qaytarish

9.1. Kitob yakka tartibdagi buyurtma bo'yicha, aynan bitta bola uchun tayyorlanishi sababli «O'zimga yoqmasi» asosi bilan almashtirish yoki to'lovni qaytarish nazarda tutilmagan.

9.2. Texnik nuqsonlar (masalan: sahifa ochilmasligi, fayl buzuvchiligi, matnda tizim aybi bilan xatolik, illyustratsiyaning aniq brak holati) aniqlansa, Buyurtmachi Kitob olingan kundan boshlab 10 kun ichida 12-bo'limdagi manzillarga murojaat qilishi mumkin. Asosli pretenziyada Ijrochi Kitobni (yoki nuqsonli qismini) bepul qayta tayyorlab beradi — bu asosiy va ustuvor yechim hisoblanadi.

9.3. Faqat xizmatni umuman ko'rsatib bo'lmagan holatda — ya'ni to'lovga qaramay Kitob hech qanday ko'rinishda tayyorlab yetkazilmagan va qayta urinishlar ham natija bermagan bo'lsa — Buyurtmachining yozma so'roviga ko'ra to'lov to'liq qaytariladi. Qaytarish so'rov kelib tushgandan keyin 10 ish kuni ichida, to'lov qilingan usul orqali amalga oshiriladi.

9.4. Pretenziyani ko'rib chiqish muddati — 10 ish kunigacha.

10. Shaxsiy ma'lumotlar va bola fotosurati

10.1. Ofertani aksept qilish bilan Buyurtmachi o'zining va vakili bo'lgan bolaning quyidagi ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi: bola ismi, yoshi, jinsi, fotosurati; Buyurtmachining telefon raqami, Telegram identifikatori va buyurtma tarixi. Buyurtmachi bola fotosuratini yuklash huquqiga egaligini (ota-ona/qonuniy vakil ekanligini) tasdiqlaydi.

10.2. Ma'lumotlar faqat quyidagi maqsadlarda ishlatiladi: Kitob tayyorlash, yetkazish, mijozlar bilan aloqa va qonunda belgilangan hisob yuritish. Fotosurat va undan yaratilgan obraz reklama yoki boshqa mijozlarning mahsulotlarida ishlatilmaydi (Buyurtmachining alohida yozma roziligisiz).

10.3. Buyurtmachi illyustratsiyalarni yaratish uchun fotosurat avtomatlashtirilgan tarzda Google Cloud (Vertex AI) xizmatiga — jumladan O'zbekiston hududidan tashqaridagi serverlarga — uzatilishiga rozilik beradi. Uzatish faqat generatsiya maqsadida amalga oshiriladi.

10.4. Buyurtmachi so'roviga ko'ra Ijrochi fotosurat va referens obrazni o'z serverlaridan 10 ish kuni ichida o'chiradi (bunda tayyor Kitobga qayta generatsiya xizmati ko'rsatib bo'lmاسligi mumkin). So'rov 12-bo'limdagi manzillarga yuboriladi.

11. Intellektual mulk

11.1. Tayyor Kitobdan Buyurtmachi shaxsiy (notijorat) maqsadlarda cheklovsiz foydalanadi: saqlash, o'qish, chop etish, yaqinlariga yuborish.

11.2. Ertak shablonlari, matnlar, dizayn, «QunduzBobo» nomi va belgilari, Servis dasturiy ta'minoti Ijrochiga tegishli. Ularni nusxalash, qayta sotish yoki tijorat maqsadida ishlatish taqiqlanadi.

12. Tomonlarning javobgarligi va fors-major

12.1. Ijrochining Buyurtmachi oldidagi jami javobgarligi tegishli buyurtma uchun haqiqatda to'langan summa bilan cheklanadi.

12.2. Tomonlar fors-major holatlarida (tabiiy ofat, elektr yoki internet uzilishlari, davlat organlari qarorlari, uchinchi tomon servislarining ommaviy nosozliklari va h.k.) majburiyatlarning kechikishi uchun javobgar emas.

12.3. Buyurtmachi Servisdan qonunga xilof maqsadlarda (jumladan, o'zga shaxslarning fotosuratlarini ularning roziligisiz yuklab) foydalanmaslik majburiyatini oladi.

13. Nizolarni hal etish

13.1. Nizolar avvalo muzokara va yozma pretenziya tartibida hal qilinadi (ko'rib chiqish — 10 ish kunigacha). Kelishuvga erishilmasa, nizo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudda ko'riladi.

14. Ofertaning amal qilishi va o'zgartirilishi

14.1. Oferta qunduzbobo.uz saytida e'lon qilingan paytdan kuchga kiradi va muddatsiz amal qiladi.

14.2. Ijrochi ofertaga o'zgartirish kiritishi mumkin; yangi tahrir saytda e'lon qilingan paytdan kuchga kiradi va faqat undan keyin berilgan buyurtmalarga qo'llanadi. Har bir buyurtmaga uni to'lash paytida amalda bo'lgan tahrir taalluqli.

15. Ijrochi rekvizitlari

Ijrochi	Yakka tartibdagi tadbirkor To'qliyev Abdurauf Bahodir o'g'li
Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik	7141567, 03.08.2026
Manzil	QASHQADARYO VILOYATI, QARSHI TUMANI, QORATEPA, QASHQADARYO 40
Telefon	+998938140505
Elektron aloqa	Telegram: @qunduzbobo_bot · Instagram: @qunduzbobo
Veb-sayt	qunduzbobo.uz